

**MAHALLABAY ISHLASH VA TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI  
LAOG (LOYIHANI AMALGA OSHIRISH GURUHI)GA EKOLOG LAVOZIMIGA  
OCHIQ TANLOV E'LON QILADI**

**LAVOZIM MAJBURIYATLARI**

1. Loyiha doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarining ekologiya (atrof-muhit)ga ta'siri bo'yicha monitoring olib borish va Xalqaro moliya instituti (XMI) bilan kelishilgan ekologik ijtimoiy kafolat hujjatlari va boshqa ekologik hujjatlar bo'yicha shartlar va tartib-taomillarga muvofiqligini ta'minlash va tegishli hisobotlarni berish.
2. Ekologik xavfsizlik bo'yicha muvofiqlikni tekshirish, loyiha doirasida umumiy atrof-muhit monitoringini muvofiqlashtirish, loyiha ishtirokchilariga atrof-muhit masalalari bo'yicha maslahat berish.
3. Loyiha faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini davriy o'rganish va buning uchun monitoring chora-tadbirlarini belgilash.
4. Loyiha hududining ekologik holatini o'rganish va asosiy ekologik parametrlarni aniqlash.
5. Loyiha hududidagi ekologik muammolar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish.
6. Loyihaning amalga oshirilishida ekologik, ijtimoiy salomatlik va xavfsizlik jihatlar bajarilishi bo'yicha muntazam monitoring hisobotlarini tayyorlash va XMiga belgilangan tartibda taqdim etilishini ta'minlash;
7. Loyiha ishtirokchilariga ekologik siyosat va standartlar bo'yicha zarur ma'lumotlarni taqdim etish;
8. Har oyda loyiha rahbariga loyiha doirasidagi ekologik parametrlar to'g'risida hisobot taqdim etish va ta'sirini yumshatish bo'yicha tavsiyalarni berish.
9. Loyiha doirasidagi ekologik standartlarini ko'rib chiqish.
10. LAOGga jalg qilingan xodimlarning atrof-muhit bilan bog'liq masalalar bo'yicha kasbiy mahoratini oshirish va rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlarini tashkil qilish.

**QO'YILADIGAN TALABLAR**

Ekoliya, atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish, sanoat muhandisligi yoki shunga o'xshash sohalar bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lish va tegishli sohada kamida 3 yillik tajribaga ega bo'lishi kerak.

Xalqaro ekologik standartlarni, shu jumladan, Jahon bankning himoya siyosati va talablarini bilishikerak.

XMIIlar bilan o'zaro hamkorlik tajribasiga ega bo'lishiga ustunlik beriladi.

Ingliz va rus tillarini yozma va og'zaki so'zlash, shuningdek, kompyuterda ishslash qobiliyati talab qilinadi.

**ISH SHAROITLARI**

**Ish kunlari:** dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma. Dam olish kunlari: shanba, yakshanba.

**Ish vaqtி:** 09:00 dan 18:00 gacha.

**Ish joyi:** Toshkent shahri.

## TASHKILOT TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Qoratosh ko‘chasi 1-uy, 10-qavat.

**Telefon raqam:** +998712386933

**Elektron manzil:** [fcd.agency@mineconomy.uz](mailto:fcd.agency@mineconomy.uz) va [sredp.ade@gmail.com](mailto:sredp.ade@gmail.com)

**Qo‘sishimcha ma’lumot:** LAOG (Loyihani amalga oshirish guruhi) Xalqaro moliya instituti ishtirokida 2022–2026-yillar davomida respublikamizda qishloq tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan loyihani amalga oshirish uchun tashkil qilinadi.

*Ma’lumotnomangiz (obyektivka, rezyume, CV)ni siz talabgor bo‘lgan lavozimni aniq ko‘rsatgan holda yuqorida keltirilgan elektron manzillarga yuborishingizni so‘raymiz.*